



Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities  
Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 1<sup>st</sup> June - 2024

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

## INTEGRATIV-KOGNITIV TOPSHIRIQLAR ORQALI BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI

Karimova Kamola Komil qizi,

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lif fakulteti Ta'lif va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lif) ixtisosligi tayanch doktoranti.

Buxoro davlat pedagogika instituti

### ANNOTATSIYA

O'quvchini passiv obyekt sifatida emas balki ta'lif jarayonida olingan bilimlari asosida kundaik hayotda muammolarga yechim topa oladigan, o'z fikriga ega faol subyekt sifatida shakllantirish pedagog zimmasidagi asosiy vazifa hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida o'qituvchidan yuksak mahoratni, kasbiy kompetentlikdagi ilg'orlikni talab etadi. Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda integrativ-kognitiv topshiriqlardan foydalanishning mohiyati hamda ijobiy jihatlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy kompetensiya, integrativ-kognitiv topshiriq, ko'nikma, kompetensiya, so'rovnama, integratsiya, fanlararo aloqadorlik, tanqidiy fikrlash, mantiqiy fiklash.

### ABSTRACT

It is the main task of the pedagogue to form the student not as a passive object, but as an active subject with his own opinion, who can find solutions to problems in everyday life based on the knowledge gained in the educational process. This, in turn, requires high skills and advanced professional competence from the teacher. This article describes the essence and positive aspects of using integrative-cognitive tasks in the development of professional competence of future primary school teachers.

**Keywords:** professional competence, integrative-cognitive task, skills, competence, questionnaire, integration, interdisciplinarity, critical thinking, logical thinking.

## **Kirish**

Ta'lim jarayonida o'qituvchi shaxsining o'rni beqiyos. Pedagog o'quvchiga faqatgina o'quv predmetidagi nazariy bilimlarni berishi emas, nazariy bilimlarga asoslangan amaliy ko'nikmalarini ularda shakllantirishi va rivojlanterishi, turli kompetensiyalarga ega bo'lgan bo'lajak shaxsni tarbiyalashi lozim. Pedagogik faoliyatni integratsion yondashuv asosida modellashtirish, o'quv jarayondagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish hamda ularni ustida ishslash pedagog kasbiy kompetensiyasini har jihatdan shakllanishiga ko'mak beradi.

Integrativ-kognitiv topshiriqlar fanlararo aloqadorlikka asoslanganligi, mavjud holatni pedagogik, psixologik hamda aqliy jihatdan inobatga olgan holda tashkil etilganligi bo'lajak o'qituvchida kasbiy kompetentlik borasidagi birqancha muammolarga yechim topishga yordam beradi.

Ta'limda integratsion yondashuv asosida tashkil etish dunyoni yaxlit anglashga, jarayon hamda bilimlar o'zaro bog'liqlikda ekanligi haqidagi tasavvurni shakllantiradi.

Tadqiqotchi B. S. Abdullayeva ham fanlararo aloqadorlikni quyidagi turlarga ajratadi: 1) mazmunli; 2) operatsion; 3) metodik; 4) tashkiliy. [4]

Integratsiyasining uchta darjasи mavjud.

predmet ichidagi - tushunchalar, bilimlar, ko'nikmalar va boshqalarning integratsiyasi. alohida elementlarning ichida;

fanlararo - faktlar, tushunchalar, tamoyillar va boshqalarni sintez qilish. ikki yoki undan ortiq fanlar;

transdisiplinar - ta'limning asosiy va qo'shimcha mazmuni tarkibiy qismlarining sintezi.

Integrativ yondashuv quyidagi imkoniyatlarni beradi.

mutaxassis har jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun kerakli shart-sharoitni yuzaga keltiradi;

ta'lim oluvchini dunyoni yaxlit idrok etishga o'rgatadi;

o'quvchini har sohada ma'lum bilmaga ega bo'lgan holda faoliyat yuritishga o'rgatadi;

o'qitish jarayoni hamda bilim sifatini yanada takomillashtirishga motivatsiya beradi;

Integratsiya o'qituvchilar va talabalarni faol birgalikdagi ijodiy jarayonga jaib qilish imkonini beradi. Bu puxta o'yangan ta'lim va tarbiya jarayoni bo'lib, u ta'limni tashkil etishning umumiyl tuzilmasini qayta ko'rib chiqishga, o'quvchilarni idrok

etish jarayoniga tayyorlashga yordam beradi. Axborotni tushunish va taxlil qilishga o'rgatib, talabalarda dunyodagi barcha jarayonlarning bir butun sifatida o'zaro ta'siri haqidagi tushuncha va g'oyalarni shakllantiradi.

Inson xotirasi va tafakkurida bilimlarning saqlanishi va rivojlanishi kognitiv faoliyat va kasbiy kompetentlik vujudga kelishiga asos bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchilarda shakllannadigan kognitiv faoliyat kasbiy ijodkorlikning asosiy manbai hisoblanadi. Bugungi kunda butun dunyo miqiyosida kognitiv pedagogikaga inson faoliyatiga xos bo'lgan barcha bilimlarni o'zida mujassamlashtirgan ilm sohasi sifatida yondashilmoqda. Bu esa o'z navbatida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash, ularda kasbiy kompetentlikni shakllantirishda kognitiv pedagogikaning imkoniyatlaridan samarali foydalanish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Kognitiv rivojlanish ta'lim oluvchining tushunchalarni tushunishi, tanqidiy fikrlash va mantiqiy fikr yuritish qobiliyatini anglatadi. Bevosita aqliy jarayon bilan kechadigan bu hodisalar o'quvchining bilim olishga bo'lgan yuzaki fikrdan uzoqlashtiradi. Har bir qabul qilgan ma'lumotini, duch kelgan vaziyatini chuqur tahlil qilishga harakat qiladi. Nafaqat tushunchalar mushohada qilishda balki o'zidagi kamchiklarni bartaraf etishda ham mantiqiy hamda tanqidiy fikrlash yetakchi imkoniyatlarga ega.

Keltirilgan ma'lumotlar asosida tahlil qiladigan bo'lsak, integrativ-kognitiv topshiriqlarni qo'llagan holda bo'lajak pedagogning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish ancha samarali. Bo'lajak o'qituvchi tahsil olish jarayonida barcha kasbiy kompetensiyalarni birdek o'zida mujassam qila olmaydi. Integrativ-kognitiv topshiriqlarni qo'llash esa ta'lim oluvchidagi qiziqish, ustun jihatlarni aniqlash yordamida o'zining ko'zlagan natijasini beradi. Integrativ-kognitiv topshiriqlarni individual tarzda har bir talabaning o'zida mavjud ustun jihatlari bilan bog'liqlikda ifodalash kasbiy kompetensiyani yuksak darajada egallash bilan birlgilikda, ta'lim olish jarayonini har jihatdan mukammal bo'lishini ta'minlaydi. Eng asosiysi ta'lim olish jarayoni talabada o'zgacha zavq bilan amalga oshiriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, integrativ-kognitiv topshiriqlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonni har jihatdan, turli fanlar bilan bilan aloqadorlikda hamda pedagogik, psixologik jihatlarni hisobga olgan holda olib borishi bilan ham o'zining ijobiy jihatiga ega. Bu kabi topshiriqlar yordamida jarayonni tashkil qilish uchun bir qancha tavsiyalarni berish mumkin: jarayonni amalga oshirishdan avval qisqa so'rovnomaga o'tkazish;



har bir bo'lajak pedagogning yutuq va kamchiliklarini chuqr tahlil qilish; jarayonni tez-tez hamda muntazam ravishda olib borish maqsadga muvofiq.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Axmedova M.T. (2018) Pedagogik kompetentlik. Uslubiy qo'llanma. T.:Nizomiy nomidagi TDPU.
2. Абдураимов Ш.С. Касб таълими ўқитувчиларини тайёрлаш сифатини таъминлашда тармоқлараро интеграциянинг педагогик имкониятларини такомиллаштириш: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ...дисс. автореф. Тошкент, 2017. – 46 б
3. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi o‘quv qo’llanma Toshkent - .ILM ZIYO. – 2009
4. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlik turlari // Uzluksiz ta’lim . – Т.: 2005- № 1. -12-16-bet
5. M.B.Alimardonova Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim uzviyligida kognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish metodikasi. Diss...avtor... Toshkent.2023.
6. Saidova M. J. (2022) MASOFAVIY TA’LIM VOSITASIDA BO’LAJAK BOSHLANG‘Ich SINF O‘QITUVchILARINING METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MAZMUNI //PEDAGOOGS jurnali.– Т. 1. – №. 1. – С. 43-46.
7. Saidova M.J. (2022) Bo'lajak boshlang‘ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlari // Sovremennyye innovatsionnyye issledovaniya aktual'nyye problemy i razvitiye tendentsii: resheniya i perspektivi.. – Т. 1. – №. 1. – С. 101-104. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8040089>
8. Jonpulatovna S. M., Qizi I. M. F. (2021) Improve Pupils’ Knowledge and Personal Qualities Through Educational Tools in Elementary Mathematics Classes //Middle European Scientific Bulletin.. – Т. 8. – С. 173.
9. K.K.Karimova. KASBIY KOPMETENSIYA HAMDA O‘QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. -Buxoro. 2024. № 2. -128-136-bet.